

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**Sh.D.Xonbabayev**

Bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda milliy va umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirishga tayyorlashning tarkibiy tuzilishi va yo'nalishlari .....227

**M.S.Xoshimov**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalq o'yinlari orqali kommunikativ kompetentligini takomillashtirishning metodologik asoslari .....231

IQTISODIYOT

**X.X.Bozarov**

Kichik biznes subyektlarida iqtisodiy inqirozga qarshi kurashish strategiyasini takomillashtirish .....235

**U.X.Gulmatov**

O'zbekiston milliy transport tizimining iqtisodiy asoslari.....239

FALSAFA

**M.M.Abduraxmonova, D.O.Akramov**

Umumta'lim maktablarida xavf guruhidagi oila farzandlarini ijtimoiylashuvida mahalla ijtimoiy xodimining ahamiyati.....246

**Q.Sulaymonov**

O'rta asr Islom Sharqi allomalarining gnoseologik va teologik qarashlarining qiyosiy induksiyasi .....253

**X.A.Yulbarsova**

Integrativ yondashuv asosida bo'lajak sotsiologlarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari.....258

**I.A.Asatulloev**

Alfred Adlarning qalb konsepsiyasida inson kamolotining ijtimoiy omillar bilan shartlanganligi.....264

**I.A.Suvanov**

Axborot jamiyatida insonni kutayotgan yangi muammolar xususida ayrim mulohazalar .....268

**M.Y.Ergashov, Z.I.Narziyev**

Qomusiy alloma Abu Bakr Muhammad Zakariyo ar-Roziyning ma'naviy va ilmiy merosi.....273

**M.K.Soipova**

Yoshlar dunyoqarashini shakllantirishda fan va islom qadriyatlarini tushunchasining mazmun mohiyati.....277

**I.B.Toshpo'latov**

Jamiyat taraqqiyotida filantropik harakatning ahamiyati.....281

**З.С.Касимова**

Цифровизация и гуманитарное образование: сотрудничество и инновации .....284

SIYOSAT

**Z.Sh.Turg'unboyev**

O'zbekiston Respublikasining Afg'onistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni mo'tadillashtirishda xalqaro maydondagi tashabbuslari.....290

**O'.N.Ahmedova**

Davlat va jamiyat boshqaruvida rahbar kadrlar ma'naviyatini yuksaltirish zarurati.....296

**M.T.Musayev**

Globalashuv sharoitida missionerlikning ijtimoiy-siyosiy munosabatlarga ta'siri.....300

**G.S.Ro'ziyeva**

Madaniyat va milliy xavfsizlik sohasida davlat siyosatini belgilashning o'ziga xosligi .....305

TARIX

**B.X.Matboboyev, A.A.Aloxunov**

O'zbek-Xitoy qo'shma xalqaro arxeologik ekspeditsiyasining Mingtepa shahar xarobasida olib borgan ilmiy izlanishlari natijalari xususida .....311

**J.Sultonov**

Chingizxonning markazlashgan davlatga asos solishida ittifoqchilik va diplomatiyaning roli....318

**X.X.Azimov**

Qadimgi Xitoy manbalarida Usun davlati.....329

**J.Z.Axmedov**



UO‘K: 378.014.15

**BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI XALQ O‘YINLARI ORQALI KOMMUNIKATIV  
KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI****МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОВЫШЕНИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ  
КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧАЩИХСЯ МЛАДШИХ КЛАССОВ ПОСРЕДСТВОМ НАРОДНЫХ ИГР****METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF IMPROVING THE COMMUNICATIVE  
COMPETENCE OF ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS THROUGH FOLK GAMES****Xoshimov Murodjon Solijonovich**

Qo‘qon davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini xalq o‘yinlari orqali kommunikativ kompetentligini takomillashtirishning metodologik asoslari o‘rganilgan, uning bugungi kundagi zarurati hamda pedagogik dolzarbligi atroflicha yoritilgan.

**Аннотация**

В данной статье исследуются методические основы повышения коммуникативной компетентности учащихся младших классов посредством народных игр, подробно освещаются ее необходимость и педагогическая актуальность на сегодняшний день.

**Abstract**

In this article, the methodological basis of improving the communicative competence of elementary school students through folk games is studied, its necessity and pedagogical relevance today are covered in detail.

**Kalit so‘zlar:** pedagog, kasbiy kompetentlik, klassifikatsiya, takomillashtirish, kompetensiya, kompetent yondashuv, kommunikativ, xalq o‘yinlari.

**Ключевые слова:** педагог, профессиональная компетентность, классификация, совершенствование, компетентность, компетентный подход, коммуникативность, народные игры.

**Key words:** pedagogue, professional competence, classification, improvement, competence, competent approach, communicative, folk games.

**KIRISH**

Zamonaviy sharoitda fan va texnika rivoji ta‘lim va uning natijalariga qo‘yiladigan talablarni tubdan o‘zgartirishni talab etmoqda va ana shu asosdan kelib chiqqan holda yangi avlod standartlarini yaratishni davrning o‘zi pedagoglarning oldiga muhim vazifa qilib qo‘ymoqda. Hozirgi vaqtgacha yaratilgan Davlat ta‘lim standartlari tizimli-faoliyatli yondashuvga asoslangan bo‘lsa, umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining maqsadini o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish tarzidan o‘z-o‘zini rivojlantirishga qaratilgan kompetensiyalarni kompetentli-faoliyatli yondashuvga asoslanishdan kelib chiqqan holda belgilash talab etilmoqda. Chunki umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida tashkil etilayotgan o‘quv-tarbiya jarayonining mohiyati o‘quvchilarning ehtiyojlari va qobiliyatlarini rivojlantirish emas, balki o‘quv fanlari bo‘yicha asosan bilimlarni axborot-verbal tarzda yetkazish, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat bo‘lib qolmoqda. Bunday reproduktiv tarzda o‘zlashtirilgan ma‘lumotlar o‘quvchining amaliy faoliyat tajribasini rivojlantirishga yetarlicha imkon bermaydi. Oqibatda o‘quvchilarda juda ko‘p axborotlarning behuda jamg‘arilayotganligi, ta‘limning samarasi past bo‘lishi va uning real voqelikka mos kelmasligi kabi tafovutlar ko‘zga tashlanmoqda. Aniqrog‘i, o‘quvchi real hayotdan uzoqlashib qolgandek, uning oldiga faqat ilgari to‘plangan axborotlarnigina o‘zlashtirish maqsadi qo‘yilgandek tuyuladi. Ta‘limning maqsadini bunday tarzda belgilash o‘quvchining faolligini cheklab qo‘yadi, oqibatda uning ham shaxsiy, ham ijtimoiy jihatdan anglangan ma‘nosi yo‘qoladi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish samaradorligini oshirishda xalq o'yinlari va didaktik o'qinlardan foydalanish muammosiga mutaxassislar alohida e'tibor qaratib kelmoqdalar. Jumladan, Respublikamiz olimlaridan M.Abdullajonova, B.R.Adizov, A.Y.Bobomurodova, O.Jamoldinova, B.Ziyomuhamedov, G.Ibragimova, R.Ishmuhammedov, U.I.Mahkamov, M.H.Mahmudov, O.Musurmonova, D.Sharipova Sh.Sharipov, N.M.Egamberdiyeva kabilarning ishlarida bu o'z ifodasini topdi.

Xorijlik olimlardan A.Yolanda, N.Nicotera, A.Christopher, L.Botcheva, J.Shih, L.C.Huffman, L.D.Breeman, van Lier, Theo Wubbels, R.Sears, J.L.Spilt, E.Vervoort, A.Koenen, F.Clemente, A.Amutio, L.Gonzalezlarning tadqiqotlarida o'yinlarning ijtimoiy ko'nikmalarni va tayanch kompetensiyalarni shakllantirishdagi imkoniyatlari tadqiq etilgan.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Kompetent yondashuv o'quvchidan alohida-alohida bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishni emas, balki ularni yaxlitlikda egallashni talab etadi. Mazkur talab bilan bog'liqlikda o'z navbatida o'qitish metodlarini tanlash tizimi ham o'zgarishga uchraydi. O'qitish metodlarini tanlash va amaliyotda qo'llash o'z navbatida ta'lim jarayonida qo'yiladigan talablarga muvofiq keladigan kompetensiya va funksiyalarni takomillashtirishni talab etadi. Demak, kompetent yondashuv umumiy o'rta ta'limni modernizatsiyalash nuqtai nazaridan yangi pedagogik voqelik hisoblanadi. Mazkur yondashuv doirasida amaliy faoliyat tajribasi, kompetensiya va kompetentlikni didaktik birliklar sifatida ko'rib chiqish hamda ta'limning an'anaviy uch elementi (triada) – «Bilim – Ko'nikma – Malaka»ni oltita birlik (sikstet) – «Bilim – Ko'nikma – Malaka – Amaliy faoliyat tajribasi – Kompetensiya – Kompetentlik» tarzida tahlil etilishi talab etiladi.

Bugungi kunda biz kommunikativ kompetentlik deb ataydigan samarali muloqot qilish qobiliyati har doim ko'plab olimlarni qiziqtirgan. Tilshunoslik, sotsiologiya, ijtimoiy psixologiya, pedagogika kabi fanlar va boshqa zamonaviy bilim sohalarida shaxslararo o'zaro munosabatlarni, shaxsning kommunikativ hatti-harakatlarini nazariy o'rganishga e'tibor qaratilgan.

Pedagogikadan atamalar lug'atida «kompetensiya — u yoki bu soha bo'yicha bilimdonlik» [4] sifatida tarif berilgan bo'lsa, O'zbekiston milliy ensiklopediyasida «kompetensiya — 1) muayyan davlat organi (mahalliy o'zini o'zi boshqarish organi) yoki mansabdor shaxsning qonun, ustav yoki boshqa hujjat bilan belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi; 2) u yoki bu sohadagi bilimlar, tajriba» [6] sifatida tariflanadi.

O'zbek olimi N.M.Muslimovning fikricha inglizcha «competence» tushunchasining lug'aviy ma'nosi «qobiliyat» demakdir, biroq kompetensiya atamasi bilim, ko'nikma, mahorat va qobiliyatni ifoda etishga xizmat qiladi.

Rus olimi N.V.Tarasova bo'lsa, «kompetensiya» tushunchasini «muammoni hal etish uchun bilim va vaziyat, bilim va harakat o'rtasida aloqadorlikni ta'minlash imkonini beradigan bilim, qadriyatlar, layoqatlarga asoslangan umumiy qobiliyat» sifatida talqin etadi [5]. Muallifning fikridan kelib chiqqan holda, kompetensiya – insonning mavjud bilim va hayotiy tajribalarga tayangan holda ma'lum bir muammoni hal etishga doir qobiliyati, degan xulosaga kelish mumkin.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, «kompetensiya» tushunchasiga berilgan aksariyat ta'riflar kasbiy ta'lim, kasbiy faoliyat bilan bog'liqlikda bayon etilgan. Biroq umumiy o'rta ta'lim bilan bog'liqlikda mazkur tushuncha innovatsiya tavsifiga ega bo'lganligi sababli, uning mohiyatini aniqlashtirishga alohida ehtiyoj mavjud.

Aslida kompetentlik tushunchasi ta'lim sohasiga psixologlarning ilmiy izlanishlari natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai-nazardan kompetentlik «noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik»ni anglatadi. Shuningdek, kompetensiyalar bilimlarni doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi. U bilimga asoslangan haqiqiy, shakllangan shaxsiy sifat hisoblanib, shaxsning intellektual va shaxsan aniqlangan ijtimoiy va kasbiy shakllanishidir. Shuningdek, u muayyan obyektlar va jarayonlar bilan bog'liq holda aniqlangan va ularga nisbatan yuqori sifatli ishlab chiqarish faoliyati uchun zarur bo'lgan o'zaro bog'liq xususiyatlar to'plamini (bilim, ko'nikma, faoliyat usullari) o'z ichiga oladi [1]. Demak, o'quvchilarga

## PEDAGOGIKA

nisbatan ularning ta'lim jarayonidagi tayyorgarligiga bo'lgan ma'lum bir ajratib olingan, maxsus talab hisoblanadi.

“Kommunikatsiya” tushunchasi (lotincha *communico* – umumiy ma’noni anglatadi) juda keng bo'lib, u inson faoliyatining turli sohalarida pedagogika, psixologiya, tilshunoslik, menejment, huquqshunoslik, iqtisod va hokazolarda qo'llaniladi. Bugungi kunda ushbu tushunchaga nisbatan berilgan qator ta'riflar mavjud bo'lib, ularning ayrimlariga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq. Kommunikatsiya, umumiy ma'noda, xabar, har qanday ma'lumotni uzatishdir. Muloqot jarayoni inson va jamiyat hayotining muhim asoslaridan biri sifatida taqdim etiladi. Shu bilan birga, tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, muloqot jarayoni o'zini ham, uning natijasini ham anglatadi. O'z navbatida, shaxslararo muloqot ma'lumotni bir shaxsdan boshqa insonga maqsadli obyektga yoki ma'lum bir guruh obyektlariga o'tkazish jarayonidan boshqa narsa emasligidan dalolat beradi.

Kommunikatsiya so'zi bilan o'zakdosh bo'lgan “kommunikabellik” – “muomala qilishga layoqati bor” ma'nosida, “kommunikabel” – “kirishimli, dilkash” ma'nosini bildiradi, shuningdek “kommunikativ” – ya'ni “kommunikatsiyaga oid”.

Kommunikatsiya – bu, birinchi navbatda, faoliyat usuli bo'lib, u insonlarning o'zaro muomalaga moslashishini namoyon qiladi. Demak, kommunikatsiya o'ziga xos o'zaro fikr almashish jarayoni sifatida qabul qilinishi mumkin, buning natijasida o'zaro yordam ko'rsatish va murakkablikning turli darajalaridagi harakatlar muvofiqligi ta'minlanadi. Shuningdek, kommunikatsiyani muloqotning tarkibiy qismlaridan biri sifatida belgilash mumkin.

Shunday ekan, kommunikativlik muloqot qiluvchi tomonlarning g'oyalari, fikrlari, bilimlari, his-tuyg'ularini aks ettiruvchi integral belgilar shakllanishining almashinuvi deb ta'kidlash mumkin.

Kommunikativ kompetentlik borasida olimlar tomonidan olib borilgan izlanishlar shuni ko'rsatadiki, aynan kompetensiyalar ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchilarga nimani o'rgatish va qanday o'rgatish, nimalarni shakllantirish lozimligi muhim sanaladi. Bu jarayonda ingliz tili darslari ham bundan mustasno emas. Shu nuqtai nazardan olganda, “kommunikativ kompetentlik” tushunchasini tahlil qilish biz uchun dolzarb muammodek ko'rinadi.

Tadqiqotchi olim E.I.Litnevskaya kommunikativ kompetensiyaga nisbatan quyidagi ta'rifini ilgari suradi: “Nutq faoliyatining barcha turlarini og'zaki va yozma nutq madaniyati elementlarini, ma'lum bir yoshdagi muloqotning hayotiy sohaları va vaziyatlarida tildan foydalanishning asosiy ko'nikmalari va malakalarini o'zlashtirishdir” [3].

Boshqa bir olim N.I.Geiz kommunikativ kompetentlikni “turli ijtimoiy jihatdan belgilangan sharoitlarda tilni to'g'ri qo'llash qobiliyati” deb tushunadi. Demak, kommunikativ kompetentlik nutqni muloqotning maqsadi va holati bilan taqqoslash qobiliyatini, shuningdek, kommunikativ xatti-harakatlarning madaniy va ijtimoiy meyorlarini hisobga olgan holda muloqotni to'g'ri yo'lga qo'yish qobiliyatini o'z ichiga oladi.

Shu o'rinda kommunikativ kompetentlikka nisbatan mukammal ta'rif M.R.Lvov tomonidan keltirib o'tilgan bo'lib, uning ta'kidlashicha, “kommunikativ kompetentlik – bu til va uning fonetik xususiyatlarini, leksik va grammatik birliklarini, stilistikasini, nutq madaniyatini, ushbu til vositalariga ega bo'lishni va nutq faoliyati turlarini bilishni bildiruvchi tushunchadir. Shuningdek, nutq, tinglash, o'qish, yozish - insonning ijtimoiy, kasbiy, madaniy talablari doirasida va kommunikativ kompetensiya tabiiy nutq faoliyati hamda maxsus tayyorgarlik natijasiga ega bo'ladi”.

Kommunikativ kompetentlik bir qator olimlar tomonidan “til yordamida o'zaro ta'sirni amalga oshirish, ya'ni suhbatdoshlar bilan muloqot qilish jarayonida o'z fikrlarini ifodalash va ulardan turli sharoitlarda foydalanish, tilshunoslik tizimini to'g'ri qo'llash qobiliyati”, deb talqin qilinadi hamda nutq meyorlari, ma'lum muloqot sharoitlariga mos keladigan kommunikativ xatti-harakatlarni afzal ko'radilar”.

A.N.Kazarsevning fikriga ko'ra, “kommunikativ kompetensiya – bu begonalarni tushunish va muloqotning maqsad, sohalar, vaziyatlariga mos keladigan nutq xatti-harakatlari orqali o'z dasturlarini yaratish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning jamlanmasidir. U nutq lingvistikasining asosiy tushunchalari – uslublar, turlar, matndagi jummalarni bog'lash usullari va boshqalar haqidagi bilimlarni o'z ichiga oladi; matnni tahlil qilish malakalari va qobiliyatlari va muloqot qila olish qobiliyatlari - qabul qiluvchi va maqsadni hisobga olgan holda muloqotning turli sohaları va vaziyatlariga nisbatan og'zaki muloqot qilish ko'nikmalari va qobiliyatlari” [2].

O'quvchilarning kommunikativ kompetentligiga nimalar kiritilishi kerakligiga ko'plab yondashuvlar mavjud. D.Xayms bu yerga diskursiv (aytilayotgan gapning ma'nosini qurish

qoidalari) va strategik (suhbatdosh bilan aloqani davom ettirish qoidalari), grammatik (til qoidalari) va ijtimoiy-lingvistik (dialekt nutq qoidalari) kompetensiyalarini kiritishni zarur deb hisobladi.

Tadqiqotchi A.A.Bodalyovning izohlashicha, “muloqotning kommunikativ tomoni insonlar orasida ma’lumotlar bilan o’rtoqlashishdan, muloqotning interfaol tomoni individlar orasida o’zaro hamkorlikni tashkillashdan, ya’ni nafaqat bilim va g’oyalar, shu bilan birga xatti-harakatlar bilan axborot almashinishdan..., muloqotning perseptiv tomoni bir-birlarini qabul qilish jarayonini muloqotdagi sherik deb qabul qilishi va shuning zaminida hamjihatlik munosabatidan iborat. Shaxs muloqot qilayotgan sheriklarining o’z fikri, dunyoqarashi, g’oyalarini to’la-to’kis ifodalashga psixologik sharoitlar yaratish, vositalarning boy, turli-tuman palitrasini tashkillash, adekvatlikning barcha perseptiv, kommunikativ, interfaol qirralarini egallashga yo’naltirilgan bo’lishi kerak”.

Rus olimi O.Kazarseva fikricha, kommunikativ kompetentlik “tug’ma qobiliyat bo’lmay, inson tomonidan ijtimoiy-kommunikativ tajribani egallash jarayonida shakllanuvchi qobiliyatdir. Kommunikativ-ijtimoiy tajriba, avvalo, munosabatlarni o’zgartirish mexanizmini o’z ichiga olib, nutqni stilistik jihatdan turli variantlarda qo’llashda namoyon bo’ladi. Bunday o’zgarishning asosida muloqot ishtirokchilari o’rtasidagi rolli muloqotlarning o’zgarishi yotadi”. Demak, ushbu kompetentlik, murakkab kommunikativ ko’nikma va faoliyat turi bo’lib, yangi ijtimoiy ko’nikmalar, muloqot normalari va cheklovlar, bilim, urf-odatlar, etiket, odob-axloq, ta’limga xos oriyentatsiyalar hisoblanadi.

Tadqiqotchi olim N.Amirov fikricha, «bugungi kunda biz kommunikativ kompetentlik deb ataydigan samarali muloqot qilish qobiliyati har doim ko’plab olimlarni qiziqtirgan. Sotsiologiya, ijtimoiy psixologiya, pedagogika kabi fanlar va boshqa zamonaviy bilim sohalarida shaxslararo o’zaro munosabatlarni, shaxsning kommunikativ hatti-harakatlarini nazariy o’rganishga e’tibor qaratilgan» [1]. Hozirda ham kadrlarni tayyorlashda ularni o’quvchilik davridanoq samarali muloqot qilishga tayyorlash va muloqot madaniyatiga oid bilimlarini oshirishga qaratilgan tadqiqot ishlarini ko’paytirishga ijtimoiy ehtiyoj mavjud. Buning uchun esa, bugungi global muloqot makonini shakllanayotgan bir sharoitda «turli xil ta’lim islohotlarini amalga oshirishda, xususan, ta’lim tizimining yangi davlat standartlariga o’tishida va bo’lajak mutaxassislarni tayyorlashda e’tiborga olinishi mumkin bo’lgan ilmiy tavsiyalarning ahamiyati o’sib bormoqda. Zamonaviy o’quv jarayonidagi asosiy maqsad o’quvchilarni shaxsiy qobiliyatlari, ilmiy salohiyatini bilim, ko’nikma va malakalarini, rivojlantirishga qaratilgan samarali uzluksiz ta’limni tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi» [1]. Demak, kommunikativlik - bu muloqot qobiliyatlari, bilim, ko’nikma va ko’nikmalarga oid ijtimoiy tajribani o’z ichiga olgan shaxsning umumiy kommunikativ xususiyatidir.

### XULOSA

Kommunikativ kompetentlikni shakllantirish ta’limda pedagogik muloqot va tolerant ijtimoiy munosabatlarni o’rnatishga tayanadi. Muloqotning bunday holatida amal qilish xususiyati shunga olib keladiki, o’qituvchi o’quvchi bilan doim o’z fikri, ya’ni faqat «o’zinigina» talabini bayon qilish orqali muloqotga intiladi. Bolalar bilan muloqotda “o’zinigina” talabini bayon etish orqali emas, balki “bolalardan” fikr olish, ularning qiziqishlari, intilishlarini nazarda tutib, muloqot qurish muhim, shunda bola o’z qiziqish va o’z olami bilan pedagogik maqsadlar radiusida bo’ladi.

### ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Амиров Н.И. Таълим жараёнида талабалар коммуникатив компетентлигини шакллантириш. Замонавий таълим. 2020. 3.(88). –Б. 26.
2. Казарцев А.Н. Культура речевого общения: теория и практика обучения: учебное пособие. 2-е изд. – М.: Флинта – Наука, 1999. – С. 496.6.
3. Литневская Е.И. Методика преподавания русского языка в средней школе: учеб. пособие для студентов высших учебных заведений / Е.И. Литневская, В.А. Багрянцева. – М.: Академический проект, 2006. – С. 588.
4. Педагогикадан атамалар луғати. — Тошкент: Фан, 2008. — 196 б.
5. Тарасова Н.В. Мировой опыт реализации компетентного подхода в профессиональном образовании// Среднее профессиональное образование. – 2007. – №2. – С. 36-38.
6. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 4-жилд. Зебуннисо-Конирил. — Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. — 704 б.